

**O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi  
ichki audit xizmati faoliyatining 2026-yil I-chorak mobaynida amalga  
oshirilgan ishlar bo‘yicha**

**HISOBOTI**

Vazirlikning Ichki audit boshqarmasi tomonidan 2026-yil uchun tasdiqlangan rejaga muvofiq joriy yilning I-choragida 6 ta ichki audit tadbirlari o‘tkazildi. Ichki audit tadbirlari 12 ta ichki audit obyektlarida o‘tkazildi.

Hususan, Buxoro va Jondor tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limlarida, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi va Amudaryo tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limida, G‘ozg‘on va Karmana tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limlarida, Yakkasaroy, Sergeli, Mirobod va Mirzo Ulug‘bek tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limlarida ichki audit tadbirlari o‘tkazilib, bir qator moliyaviy xato va kamchiliklarga yo‘l qo‘yilganligi aniqlandi.

Shuningdek, vazirlikning 2025-yil uchun budget mablag‘laridan foydalanish bilan bog‘liq maqsadli indikatorlarining yillik ijrosi va vazirlik, uning tizimi va tasarrufidagi tashkilotlarning 2026-yil uchun xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalini meyyoriy hujjatlarga muvofiqligi bo‘yicha o‘rganishlar o‘tkazildi.

O‘tkazilgan ichki audit tadbirlari yakuniy hisobotlariga ko‘ra zimmasiga yuklangan vazifalarning yetarli darajada bajarilishini ta‘minlamagani, sohaga oid normativ-huquqiy hujjatlar talablarini buzilishiga yo‘l qo‘yganligi hamda moliya-xo‘jalik faoliyatida aniqlangan moliyaviy kamchiliklarning oldini olish bo‘yicha lozim darajada nazorat qilmaganligi uchun 6 nafar xodimlarga “Hayfsan” intizomiy jazo choralari qo‘llanilgan.

Ichki audit tadbirlari natijasiga ko‘ra, moliyaviy xato va kamchiliklarni bartaraf etish, kelgusida shu kabi holatlarni takrorlanmasligi, ajratilayotgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish maqsadida tizim tashkilotlari rahbarlariga aniq vazifalar belgilab berildi.

Aniqlanayotgan moliyaviy xato va kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida, vazirlik huzuridagi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi xodimlarini malakasini oshirish markazida markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xodimlari, viloyat inspeksiya inspektorlari hamda Tuman bo‘lim boshliqlarini o‘qitish sohaviy bilim va ko‘nikmalarini oshirish, o‘rganishlarda aniqlanayotgan tizimli xato va kamchiliklarni oldini olish uchun seminar-treninglar tashkil etilmoqda.

Ichki audit boshqarmasining ma‘sul xodimlari Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi o‘quv markazi binosida xalqaro ekspert tomonidan ichki audit xizmati xodimlarini sertifikatlashning amaldagi tizimini xalqaro standart va tajribalar asosida takomillashtirish bo‘yicha trening mashg‘ulotlarida ishtirok etib tegishli toifadagi sertifikatga ega bo‘ldi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Hisob Palatasi tomonidan Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi hamda vazirlik va idoralarning ichki audit xizmati xodimlari uchun tashkil etilgan vebinarda barcha boshqarma xodimlarining ishtiroki ta‘minlandi hamda xodimlarda qo‘shimcha bilim va ko‘nikmalar shakllandi.